

**H.NURMATOV, N.NORXO‘JAYEV**

# **MUSIQA**

1-SINF UCHUN DARSLIK

Qayta ishlangan 14-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2015

78(075,2) - Мусиқа

UO'K 78 (075)  
KBK 85.31ya71  
H 87

Mas'ul muharrir **Q.Ma'mirov** — TDPU professori

Taqrizchilar: **A.Qo'shayev** – BDU dotsenti; **G.G'aniyeva** – Respublika Ta'lim markazi «Musiqqa, san'at, mehnat ta'limi, jismoniy kamolot va salomatlik» bo'limi metodisti; **F.Zoitova** – 261-maktab o'qituvchisi


**Davlat budget mablag'lari hisobidan chop etildi. Bepul.**

Nurmatov H., Norxo'jayev N.

Musiqqa: 1-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 14-nashri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 64 b.

I. Muallifdosh.

UO'K 78 (075)  
KBK 85.31ya71



ISBN 978-9943-03-007-7

10 43894  
091

© H. Nurmatov, N. Norxo'jayev  
© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi. 2015











## QO'SHIQ AYTISH QOIDALARI

Qo'shiqni to'g'ri ijro etish uchun uni diqqat bilan tinglab olish lozim.

Qo'shiqni qomatni rostlagan holda tik turib yoki o'tirib aytish kerak.

Qo'shiq aytishdan oldin shoshilmasdan nafas olish va yelkalarni ko'tarmaslik kerak.

So'z o'rtasida nafas olmang.

Qo'shiqda so'zlar aniq eshitilishi uchun unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etish kerak.

Qo'shiq aytganda tovushingiz yengil va chiroyli eshitilsin. Tovushlarni cho'zib ayting.

Qo'shiqni ifodali, tinglovchilarga yoqimli qilib aytish kerak.

Qo'shiqni o'qituvchining qo'l harakatlari qarang. Qo'shiqni o'qituvchining qo'l harakatlari qarang.

**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

**AZIZ BO‘STON – O‘ZBEKISTON**

**M.Mirzo** she‘ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Bu dunyoda chamanlar ko‘p,  
Bu dunyoda vatanlar ko‘p.  
Barchasida yashnar gullar,  
Barchasida yayrar dillar.

N a q a r o t :

Mening uchun aziz bo‘ston –  
O‘zbekiston, O‘zbekiston.

Chorlar ezgu yo‘llar meni,  
Ajdodlarim qo‘llar meni.  
Bu Vatanda to‘kmasman yosh,  
Bu Vatanda egmasman bosh.

N a q a r o t





**AU DEGANDA TOVUSH  
PASTDAN YUQORIGA CHIQADI.**

**TOVUSHLARNI TO'G'RI TALAFFUZ  
QILISHNI O'RGANAMIZ**



**A**



**U**



**O**



**I**



**Ye**



**HAR BIR QO'SHIQNI OVOZDA  
KUYLASH VA TURLI CHOLG'ULARDA  
CHALISH MUMKIN.**

**DO'LONCHA**

**Xalq kuyi**

**O'ynoqi**






## MUSIQANING ASOSI KUYDIR.

«Raq» kuyini tinglang.

**Allegro moderato**

**Xalq kuyi**



RUBOB

**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

## **OLMA**

**P.Mo'min** she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Olmani qarang,  
Olmani qarang,  
Yuzlari tarang.  
Shoxda qaltirar,  
Shoxda qaltirar,  
Rangi yaltirar.


Ketmas uzilib,  
Ketmas uzilib,  
Turar tizilib.  
Kim olma yesa,  
Kim olma yesa,  
Maza-yu maza!





# MILLIY CHOLG'ULAR BILAN TANISHING

DOIRA



NOG'ORA



Tinglaymiz, musiqaga mos qadam  
tashlab yurishni o'rganamiz.


## YURISH MARSHI

F.Nazarov musiqasi

Marshona



Ayting-chi, koptokchalar qaysi chiziq-  
larga joylashgan?





**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

**O'QISHNI BILIB OLSANG**

**M.Yusupov** she'ri      **M.Dadaboyev** musiqasi

O'qishni bilib olsang  
Juda yaxshi o'zingga.  
Bolday shira kiradi  
Har bir aytgan so'zingga.

Kitoblar kulib boqar  
Sho'x, o'ynoqi ko'zingga.  
Gullar poyandoz bo'lar  
Bosgan har bir izingga.


O'qimishli kishilar  
Aqllidir, donodir.  
O'qib bilimli bo'lsang,  
Barcha ishing a'lodir.

## QANDAY TOVUSHLARNI BILASIZ?

### Shovqinli tovushlar



### Musiqiy tovushlar



Atrofimizda tovushlar juda ko'p. Tabiatdagi barcha tovushlar shovqinli tovushlarga kiradi.

Qo'shiq kuylashda va cholg'u sozlarini chalishda yangraydigan tovushlar musiqiy tovushlar deyiladi.







**O'rganamiz, kuylaymiz**  
**SALOM BERGAN BOLALAR**

**P.Mo'min** she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Salom bergan bolaning  
O'zi odobli,  
Kulib turgan yuzlari  
Go'yo oftobli.

Naqarot:

Salom berish, bu –  
A'lo alomat,  
Salom berganlar,  
Bo'ling salomat.



Salom bergan bolaning  
Darsi doim «besh»,  
Maktab, uyda, ko'chada  
Yaxshilarga esh.

Naqarot





**TOVUSHLAR YUQORI, PAST VA  
BIR TEKIS BALANDLIKDA BO'LADI.**



	Alisher Navoiy
201.5/110	nomidagi
A6950	O'zbekiston MK



QQ TERAKMI, KO'K TERAK?

X.Qayumov she'ri A.Mansurov musiqasi

**Allegretto**



Oq te-rak-mi, ko'k te-rak, biz-dan sizga kim ke-rak?



O'-qi-shi, i-shi a'-lo, G'ay-rat-li, chaq-qon, do-no.



Kat-ta-lar-ning dast-yo-ri, Ki-chik-lar-ning sar-do-ri,



Odob,ax-loqda o'rnak, quvnoq bo-lalar ke- rak.



Oq te-rak-mi, ko'k te-rak, biz-dan sizga kim ke-rak?



Oq te-rak-mi, ko'k te-rak, biz-dan sizga kim kerak?



Quv-noq bo- la- lar ke- rak,



i-noq bo- la- lar ke- rak.



**QO'SHIQ AYTGANDA SO'ZLARNING  
ANIQ VA TUSHUNARLI BO'LISHIGA  
E'TIBOR QILING.**

**AYIQPOLVONLAR BOG'CHASI**


**H.Muhammad** she'ri

**T.Toshmatov** musiqasi

Bizning o'rmon-bog'chamiz,  
Daraxtzor-u keng o'tloq.  
Qo'l ushlab barchamiz,  
Qo'shiq kuylaymiz quvnoq,  
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u,  
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u.

Ayni peshin chog'ida,  
O'rmonning quchog'ida.  
O'tirilib to'nkaga,  
Asal qo'yib o'rtaga  
Maza qilib yalaymiz,  
Turib yana o'ynaymiz,  
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u,  
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u.

Musiqa tovushlari nota bilan yoziladi.  
Notalar yoziladigan beshta chiziqqa  
**NOTA YO'LI** deyiladi.



Ayting-chi, o'quvchilar qanday  
cholg'ularda chalishmoqda?





**MUSIQANI TINGLAB, UNGA  
CHAPAK BILAN JO'R BO'LAMIZ.**

**QARI NAVO**

**Sho'x**

**O'zbek xalq kuyi**



# Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

## ALIFBO BAYRAMI

**P.Mo'min** she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Alifbodan

Harflarni

Biz o'rgandik  
oz-ozdan.

Minnatdormiz

O'rgatuvchi

Muallimdan –  
ustozdan.

Har bir harf

Daftarlarda

Gijinglaydi .  
toy bo'lib.

Yozganimiz

Ko'rinadi

Yulduz bo'lib,  
oy bo'lib.

Naqarot:

Tilimizni

Sayratadi

Alifbomiz bayrami.

Dilimizni

Yayratadi

Bayramlarning  
xurrami.

Naqarot

Oldimizga

Saf tortishdi

Askarlarday harflar.

Barchasiga

Qo'shiqlarda

Berib o'tdik ta'riflar.

Naqarot







### SKRIPKA KALITI

Skripka kalitining aylanma qismi nota yoʻlining ikkinchi chizigʻini qamrab oladi. Ikkinchi chiziqqa SOL tovushi yoziladi. Bu kalit SOL kaliti deb ham ataladi. Skripka kalitini chiroyli yozishga oʻrganing.



# MUSIQANI DIQQAT BILAN TINGLANG.

## SARBOZCHA (BUXORCHA)

O'zbek xalq kuyi

Marsh

The image displays a musical score for a march titled "Sarbozcha (Buxorcha)". The score is written in G major (three sharps: F#, C#, G#) and 2/4 time. It consists of five staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of three sharps, and a 2/4 time signature. The melody is composed of eighth and quarter notes, with a repeat sign at the end of the first measure. The second staff continues the melody with similar rhythmic patterns. The third staff features a more complex rhythmic pattern with sixteenth notes. The fourth and fifth staves conclude the piece with a final cadence, marked by a double bar line and repeat dots.




## TANISHING



**Bastakor musiqa  
bastalaydi.**



**Shoir she'r yozadi.**



**Xonanda qo'shiq  
aytadi.**



**Sozanda kuy  
chaladi.**



# ASP BO'LAMAN

O'zbek xalq kuyi

O'ynoqi

The first system of musical notation consists of two staves. The upper staff is in treble clef and the lower staff is in bass clef. Both staves are in the key of D major (two sharps) and 6/8 time. The tempo/mood is marked *mf*. The melody in the upper staff begins with a quarter note D, followed by eighth notes E, F, G, A, B, C, D. The bass line consists of eighth notes D, E, F, G, A, B, C, D.

The second system of musical notation consists of two staves. The upper staff continues the melody from the first system. The lower staff continues the bass line. A dynamic marking of *f* (forte) appears in the second measure of the lower staff, where the bass line changes to a series of chords.

The third system of musical notation consists of two staves. The upper staff continues the melody. The lower staff continues the bass line with chords. The dynamic marking *f* remains.

The fourth system of musical notation consists of two staves. The upper staff continues the melody. The lower staff continues the bass line. The piece concludes with a double bar line.



**QO'SHIQ AYTGANDA SO'ZLARNING  
ANIQ VA TUSHUNARLI BO'LISHIGA  
E'TIBOR QILING.**

**BIRINCHI QOR**

**R.Tolib** she'ri

**N.Norxo'jayev** musiqasi

Ey qor, shodsan buncha ham,  
Axir erib ketasan.

Voy, voy, voy, voy.

Men sizlarga bir olam  
Quvonch berib ketaman.

Hoy, hoy, hoy, hoy.



## Mustahkamlash uchun topshiriq

Diqqat bilan tinglang va toping:


O'qituvchi quyidagi ikki misoldan qaysi birini aytdi?



Bu misoldan eng uzun tovushlarni qo'l ko'tarib ko'rsating:



Bu tovushqatorda yetmayotgan tovushni ovoz bilan aytib to'ldiring:







**QO'SHIQ SO'Z VA OHANGLARDAN  
IBORAT. SO'Z HARFLAR BILAN,  
OHANG ESA NOTALAR BILAN  
YOZILADI.**

**Musiqa tinglang**

**PIANINO**

**M.Zaynitdinova** she'ri  
**J.Najmiddinov** musiqasi  
**O'ynoqi**



Bir, ikki, uch, o'ng oyoq,  
Ohangga soling quloq.  
Yangroq kuyga jo'r bo'lib  
Qo'shiq aytamiz quvnoq.



**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

**BUVIJONIM**

**I.Jiyanov** she'ri

**X.Hasanova (Tursunova)** musiqasi

Oftob nur olar yuzingizdan,  
Dil yashnar shirin so'zingizdan.  
Sochilar gullar yo'lingizga,  
Biz talpinamiz doim sizga.

N a q a r o t :

Buvijonimsiz,  
Mening sevimli buvijonim.  
Mehribonimsiz,  
Mening hammadan mehribonim.

Uyimiz yorug' siz kelsangiz,  
Olam quvonchi siz kulsangiz.  
Yayrab o'ynaymiz bag'ringizda,  
Bor bo'ling doim baxtimizga.



N a q a r o t



# TOVUSHQATORLARNING YUQORILASHIB VA PASTLASHIB BORISHI



Fortepiano



# Tinglaymiz

## DOIRA USULLARI

O'ynoqi

Xalq kuyi





# Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

## CHILDIRMA

**P.Mo'min** she'ri


**D.Omonullayeva** musiqasi

O'zi oyday,  
Ziraklari shildir-shildir.  
Chalغانingda  
Ohanglari xilma-xildir.

Topsang darrov bildirma,  
bildirma, bildirma.  
Gumbadagum-gumbadagum,  
gumbadagum,  
Uning nomi – childirma!




**MUSIQADAGI TOVUSHLAR QUIYIDAGI  
NOMLAR BILAN YURITILADI:  
DO-RE-MI-FA-SOL-LYA-SI.**





Tovushlar nomini chapdan o'ngga va o'ngdan chapga qarab aytishga o'rganing.





# CHAMANDA GUL

O'zbek xalq qo'shig'i

Tezroq



Cha-man-da gul o- chi-lib-di(ya) chak-kang-ga taq,  
chak-kang-ga! Cha-man-da gul o- chi- lib- di (ya)  
chak- kang- ga taq, chak-kang- ga. Qo-shing-ni qo-  
ra- qil- gan (ey) Bog'-da- gi o's- ma- mi- kan (ey!)  
Cha-man-da gul o- chi- lib- di (ya) chak-kang-ga taq,  
chak-kang-ga! Cha-man-da gul o- chi- lib- di (ya)...



**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

**GULLOLA**

**M.Oqilova** she'ri

**IL.Akbarov** musiqasi

Biz bahorda chiqamiz  
Dalalarga, bog'larga.  
Gullolalar ochilgan  
Ko'm-ko'k maysazorlarda.



Dalalarda ochildi  
Gunafshalar, lolalar.  
Bizga uchib kelishdi  
Mayna, bulbul, sa'valar.

Bir tomonda lolalar,  
Quvnab terar bolalar.  
Bir tomonda qushchalar  
Bizni qutlab sayrashar.



# TOVUSHLARNING UZUN-QISQALIGI

## Butun nota



Butun notani butun mevalarga o'xshatish mumkin.




## QUYONIM

Shoshilmay

O'zbek xalq o'yini



Quyoningim, quyoningim, nima bo'ldi,  
Kasalga o'xshab o'tiribsan?  
Tur o'rningdan, o'ynab ber,  
Xohlaganingni tanlab ber.  
Bitta o'ynab ber,  
Bitta o'ynab ber.



**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

**SEHRLI DUNYO**

**H.Ahmedova** she'ri

**X.Hasanova (Tursunova)** musiqasi

Dilda orzular,  
Kuylaymiz jo'shib.  
Quvonch, shodlikni  
Kuylarga qo'shib.  
Bolalik guldur  
Bu go'zal chamanda.  
Yashaymiz yayrab  
Eng baxtli Vatanda.


**N a q a r o t :**

Kuylar olam  
Sochib ziyo.  
Chorlar har dam  
Bu sehrlı dunyo.






## Yarim nota



Butunning ikkidan biri yarim bo'ladi.



Olma o'rtasidan bo'linsa, ikkita teng yarim palla hosil bo'ladi.




# Tinglaymiz

## BOBOQ XO'ROZ

P.Mo'min she'ri N.Norxo'jayev musiqasi

**Allegretto** ♩=88

Bo-boq xo'-roz, bo-boq xo'-roz, To-ji qi-zil  
ta-roq xo'-roz. Bo-boq xo'-roz, bo-boq xo'-roz,  
To-ji qi-zil ta-roq xo'-roz.  
Du-mi ga-jak, yu-rar ser-gak,  
Du-mi ga-jak, yu-rar ser-gak, Xo'p ke-lish-gan,  
bo'-yi da- roz, Bo-boq xo'-roz...





**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

**SHUDRING**

**Qambar Ota** she'ri **N. Norxo'jayev** musiqasi

Qatra-qatra mitti jonsan,  
Himmati zo'r pahlavonsan.  
Tunda changni quvib chiqding,  
Maysalarni yuvib chiqding.

Naqarot:


Olmos shudring, tolmas shudring.  
Shudring, shudring.

Har bir qatrang sehrga kon,  
Muruvvat-u mehrga kon.  
Senda aksin ko'rar jahon,  
Tizimlaring marjon-marjon.

Naqarot:

Olmos shudring, tolmas shudring.  
Shudring, shudring.

## Chorak nota



Butunning to'rtidan biri chorak bo'ladi.



**Qovunni to'rtga bo'lsak, har bir bo'lagi chorak bo'ladi.**



**Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang**

**BUG'DOY**

**R. Tolib** she'ri **D. Omonullayeva** musiqasi

Ekkan edim,  
Ko'kat bo'ldi, don bo'ldi.  
Pishgandan so'ng  
Oppoqqina non bo'ldi.

Elim boy, elim boy,  
Nimaga boy?  
Elim boy, elim boy,  
Ekar bug'doy.




# Tinglaymiz

## LAVLAGI

**P. Mo'min** she'ri **D. Omonullayeva** musiqasi

**Allegro moderato**



Lav-la-gi-yu, lav-la-gi, yer-ni as-ta kav-la-gin.



Mo'l bo'-lib-di ho-si-li, a'-lo e-kan qi-zi-li.



Lo-la-ga o'x-shar, qip-qi-zil ran-gi.




Xud-di bo'-yal-gan-day yap-yan-gi... gi.

Lavlagi-yu, lavlagi,  
Yerni asta kavlagin.  
Mo'l bo'libdi hosili,  
A'lo ekan qizili.


Lolaga o'xshar,  
Qip-qizil rangi.  
Xuddi bo'yalganday  
Yap-yangi.



## Nimchorak nota




Butunning sakkizdan biri nimchorak bo'ladi.




Tarvuzni sakkizga bo'lsak, har bir bo'lagi nimchorak bo'ladi.








BUTUN NOTA



YARIM NOTA



CHORAK NOTA



NIMCHORAK  
NOTA








# NOTALARNING NOMLARINI AYTING

## NOTALARNING BO'LINISHI YODINGIZDAMI?

BULAR QANDAY CHO'ZIMDAGI NOTA  
VA TOVUSHLAR?



## BASTAKORLAR



**TO'LG'IN  
TOSHMATOV**



**G'AFUR  
QODIROV**



**DONI  
ZOKIROV**



**XURSHIDA  
HASANOVA  
(TURSUNOVA)**



Ota-onangiz, aka-opalaringiz  
yordamida yodlang

## DILOROMNING QO'SHIG'I

I. Donish she'ri D. Omonullayeva musiqasi

Quvnoq, xushovoz  
Jajji Dilorom.  
Qo'shig'i dilga  
Baxsh etar orom.

Ayam va dadam  
Bo'lsinlar bardam,  
Dunyo turguncha  
Tursinlar har dam.



## Tinglaymiz

### KAPALAK

**Z.Diyor** she'ri

**S.Boboyev** musiqasi

Hoy gul emgan kapalak,  
Qanotlaring ipakdak.  
Seni ko'rdim bog'chamda,  
Meni qilding jonsarak.



Uchrataman har kuni  
Seni go'zal bog'chamda,  
So'rib gullar bargini  
O'tirasan olchamda.

Borib ushlay deganda  
Shoshib qolib uhasan.  
Sira tutqich bermasdan  
Guldan gulga ko'chasan.













# REBUS








Quyidagi so'zlarni aniqlang:

			
- vruq	- kord	- sol	- rzand

			
- ist	venti - tor	- gir	- vul

			
- no	- chqon	Ga-	- ishtir

			
- rosat	- yov	- zavor	- ston

						
---	---	---	---	---	---	--



## TOPSHIRIQ

1. «DO» notasi qayerda yozilgan?



2. Nechanchi qatordagi tovushqatori to'g'ri yozilgan?


A) do, re, mi, sol, fa, lya, si, do;

B) do, mi, re, fa, sol, lya, si, do;



D) do, re, mi, fa, sol, lya, si, do;

E) do, re, mi, fa, sol, si, do, lya.

3. «FA» notasi qayerda yozilgan?




4. Eng baland tovushni toping:





## O'zingiz toping

1. Musiqa asarini qanday tinglash kerak?  
A) sekinroq gaplashib tinglash kerak;  
B) to'olon qilmasdan tinglash kerak;  
D) jim o'tirib, diqqat bilan tinglash kerak.
2. Butun notaning ichida nechta yarim nota bor?  
A) 4 ta yarim nota bor;  
B) 2 ta yarim nota bor;  
D) 6 ta yarim nota bor.
3. Nechta chorak nota bir butun notaga teng?  
A) 2 ta chorak nota;  
B) 8 ta chorak nota;  
D) 4 ta chorak nota.
4. Nechta chorak nota yarim notaga teng?  
A) 4 ta chorak nota;  
B) 2 ta chorak nota;  
D) 8 ta chorak nota.
5. Tovushqatorida qanday nota tushirib qoldirilgan?



# O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik

## SHUDRING


Qambar Ota she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

**Moderato**



Qat- ra - qat- ra mit- ti jon- san, Him- ma- ti zo'r



pah- la - von- san. Tun- da chang- ni qu- vib chiq- ding,



May- sa - lar- ni yu- vib chiq- ding. Ol- mos shud-




ring, Tol- mas shud- ring... shud- ring, shud- ring.

## OLMA


P. Mo'min she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

**Moderato con moto**




Ol- ma- ni qarang, Ol- ma- ni qarang, yuz- la- ri ta- rang.



Shox- da qal- ti- rar, shoxda qalti- rar, ran- gi yal- ti- rar.





Shox-da qal-ti-rar, ran-gi yal- ti- rar.



Shox-da qal-ti-rar, ran- gi yal- ti- rar.

## CHILDİRMA

**P.Mo‘min she‘ri D.Omonullayeva musiqasi**

**Sho‘x**




O‘zi oy- day, zi-rak-la-ri shil-dir, shil-dir.




Chal-ga-ning- da o- hang-la-ri xil-ma-xil-dir.




Top-sang dar-rov bil- dir- ma, bil- dir- ma,




bil- dir- ma. Gum-ba-da-gum, gum-ba-da-gum,



gum-ba-da-gum. Top-sang dar-rov bil- dir- ma,



bil- dir- ma, bil- dir- ma. Gum-ba-da-gum,



gum-ba-da-gum, gum-ba-da-gum, u-ning no-mi chil-dir-ma.

# CHITTIGUL

G'. G'ulom she'ri  
O'ynoqi

Xalq kuyi

Musical notation for 'Chittigul' in 4/4 time. The melody is written on a single staff with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The lyrics are: Tosh-xon qiz o'- zi - o'- zi, Bo-shi- da yo'r- ma do'- zi. Hay - yu chit- ti- gul.

## O'QISHNI BILIB OLSANG

M. Yusupov she'ri M. Dadaboyev musiqasi  
Tezroq

Musical notation for 'O'qishni bilib olsang' in 6/8 time. The melody is written on a single staff with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The lyrics are: O'qishni bi- lib ol-sang Juda yax-shi o'zing-ga. Bol-day shira ki- ra- di Har bir aytgan so'-zing-ga. Kitoblar ku-lib bo-qar Sho'x, o'ynoqi ko'zingga. Gul-lar po-yan- doz bo'- lar Bos-gan har bir i- zing - ga.




## AYIQPOLVONLAR BOG'CHASI

H. Muhammad she'ri T. Toshmatov musiqasi


O'rta



Biz-ning o'r-mon - bog'- cha-miz Da- raxt - zo - ru



keng o't- loq. Qo'l ushla-shib, bar-chamiz Qo'-shiq kuylay-



miz quv- noq. miz - quv-noq. g'u - g'u,



g'u - g'u - g'u, g'u - g'u, g'u - g'u - g'u.

## ALIFBO BAYRAMI

P. Mo'min she'ri D. Omonullayeva musiqasi


*mf*



A-lif - bo-dan xarf- larni, biz o'r-gan-dik



oz - oz - dan. Min-nat -dor-miz o'r-ga- tuv-chi




mu-al - lim- dan.

***f*** Naqarot:



Ti-li- miz-ni say-ra-ta-di

a-lif-bo-miz



bay-ram-larning xur-ra-mi.

**♩ Tamomlash uchun**



Bay-ram-lar-ning xur-ra-mi

## BUVIJONIM

I. Jiyanov she'ri

X. Hasanova (Tursunova) musiqasi

**O'рта**



Of-tob nur o-lar yu-zin-giz-dan, Dil yash-nar shi-rin



so'-zin-giz-dan. So-chi-lar gul-lar yo'-lin-giz-ga,



Biz tal-pi-na-miz do-im siz-ga.



Bu-vi-jo-nim-siz, me-ning se-vim-li



bu-vi-jo-nim. Meh-ri-bo-nim-siz, me-ning



ham-ma-dan meh-ri-bo-nim.



## SEHRLI DUNYO

H. Ahmedova she'ri

X. Hasanova (Tursunova) musiqasi

### O'rta

Dil-da or-zu-lar, kuy-lay-miz jo'-shib.  
Qu-vonch, shod-lik-ni kuy-lar-ga qo'-shib.  
Bo-la-lik gul-dir Bu go'-zal cha-man-da.  
Ya-shay-miz yay-rab eng baxt-li Va-tan-da.  
Kuy-lar o-lam so-chib zi-yo. Chor-lar har dam bu  
se-hr-li dun-yo... Se-hr-li dun-yo.


### BIRINCHI QOR

R. Tolib she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

### Andante

Ey qor, shod-san bun-cha ham,




A- xir e- rib ke-ta- san, voy, voy, voy.  
Men siz-lar-ga bir o - lam Qu-vonch be- rib ke-  
ta- man, hoy, hoy, hoy.

## BUG'DOY

R. Tolib she'ri D. Omonullayeva musiqasi

Moderato



Ek- kan e-dim, ko'-kat bo'l-di, don bo'l-di,  
don bo'l-di. Pish-gan-dan so'ng op-poq-qi-na  
non bo'l-di, non bo'l-di. E- lim boy,  
e- lim boy, ni-ma-ga boy?  
E- lim boy, e- lim boy, e- kar bug'-doy.



## MUNDARIJA

Qo'shiq aytish qoidalari .....	5
Aziz bo'ston – O'zbekiston. M.Mirzo she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	6
Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganamiz .....	7
Do'loncha. Xalq kuyi .....	8
Olma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	10
Milliy cholg'ular bilan tanishing.....	11
Yurish marshi. F.Nazarov musiqasi .....	12
O'qishni bilib olsang. M.Yusupov she'ri, M.Dadaboyev musiqasi....	13
Qanday tovushlarni bilasiz?.....	14
Andijon polkasi. Xalq kuyi .....	15
Salom bergan bolalar. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi ....	16
Oq terakmi, ko'k terak. X.Qayumov she'ri, A.Mansurov musiqasi....	18
Ayiqpolvonlar bog'chasi. H.Muhammad she'ri, T.Toshmatov musiqasi .....	19
Qari navo. O'zbek xalq kuyi.....	21
Alifbo bayrami. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	22
Skripka kaliti.....	23
Sarbozcha (Buxorcha). O'zbek xalq kuyi.....	24
Asp bo'laman. O'zbek xalq kuyi.....	26
Birinchi qor. R.Tolib she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	27
Pianino. M.Zaynitdinova she'ri, J.Najmiddinov musiqasi.....	29
Buvijonim. I.Jiyanov she'ri, X.Hasanova musiqasi.....	30
Tovushqatorlarning yuqorilashib va pastlashib borishi .....	31
Childirma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	33
Chamanda gul. O'zbek xalq qo'shig'i.....	36
Gullola. M.Oqilova she'ri, IL.Akbarov musiqasi.....	37
Tovushlarning uzun-qisqaligi. Butun nota.....	38
Quyونim. O'zbek xalq o'yini.....	39
Sehrli dunyo. H.Ahmedova she'ri, X.Hasanova musiqasi.....	40
Yarim nota.....	41
Boboq xo'roz. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	42
Shudring. Qambar Ota she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	43
Chorak nota.....	44
Bug'doy. R.Tolib she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	45
Lavlagi. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	46
Nimchorak nota.....	47
Bastakorlar.....	50
Diloromning qo'shig'i. I. Donish she'ri, D. Omonullayeva musiqasi.....	51
Kapalak. Z. Diyor she'ri, S. Boboyev musiqasi.....	52
Rebus.....	53
Topshiriq .....	54
O'zingiz toping .....	55
O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik.....	56

**HAMIDULLA NURMATOV, NADIM NORXO'JAYEV**

**MUSIQA**

**1-sinf uchun darslik**

Qayta ishlangan 14-nashri

Muharrir *M.Yo'ldosheva*  
Rassomlar: *A.Donets, E.Zokirov*  
Badiiy muharrir *Sh.Mirfayozov*  
Texnik muharrir *Ye.Koryagina*  
Musahhah *D.To'ychiyeva*

Kompyuterda tayyorlovchilar: *B.Ashurov, A.Sulaymonov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 154. 14.08.09.

2015-yil 16-aprelda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x100  $\frac{1}{16}$ .  
Kegli 18 shponli. Pragmatic garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.  
5,16 shartli bosma toboq. 6,5 nashr toboq'i.  
544780 nusxada bosildi. 188 raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

[www.gglit.uz](http://www.gglit.uz)

E-mail: [iptdgulom@sarkor.uz](mailto:iptdgulom@sarkor.uz), [info@gglit.uz](mailto:info@gglit.uz)